

“MOOC ishlab chiqish”
mavzusida xalqaro onlayn videokonferentsiya o’tkazilishi
to’g’risida

Urganch Davlat universitetida 2020 yil 18, 20, 22 may kunlari Jahon banki tomonidan moliyalashtirilayotgan “Zamonaviy onlayn o’quv markazini tashkil etish” mavzusidagi grant loyihasi doirasida Ispaniyaning Kantabriya universiteti tomonidan universitetimiz professor -o’qituvchilar uchun “MOOC ishlab chiqish” mavzusida onlayn videokonferentsiya o’tkaziladi. Videokonferentsiya ish rejasi quyidagi belgilangan:

2020 yil 18 may (13:00-15:00) prof. Iván Sarmiento va Sergio Martínez

- 1. Elektron ta’limga kirish**
- 2. Ochiq ta’lim resurslari**
- 3. MOOC dizaynidagi dastlabki qadamlar**
- 4. MOOC dizaynining umumiy xususiyatlari.**

2020 yil 20 may (13:00-15:00) prof. Sergio Martínez va Priscila Parra

- 1. Dizayn materialarini guruhlash**
- 2. Dizayn faoliyatini baholash**
- 3. Forumlar va ommaviy elektron pochta xabarlari**
- 4. Tahlil mashg’ulotlari.**

2020 yil 22 may (13:00-15:00) prof. Sergio Martínez, Priscila Parra, Iván Sarmiento

- 1. MOOC haqidagi ochiq munozaralar**
- 2. MOOC ni yaratish uchun bepul dasturiy ta’minot bo’yicha tavsiyalar: GIMP, INKSCAPE**
- 3. Professor-o’qituvchilarning MOOC lar tajribalari xususida.**

2020 yil 22 may kuni o’tkaziladigan videokonferentsiyada respublikamizdagи barcha OTMlarning professor-o’qituvchilari va ilmiy tadqiqotchilari ishtiroy etadi.

Videokonferentsiyada (kurs mashg’ulotlarida) professor-o’qituvchilarga MOODLE platformasida masofaviy ta’lim berish usullari va ochiq onlayn kurslarni ishlab chiqish, ulardan foydalanish usullari, talaba bilan o’qituvchi o’rtasida onlayn muloqotni tashkil etishning innovatsion usullari haqida muhim ma’lumotlar beriladi hamda o’zaro tajribalar muhokama etiladi. Muhokamalarda faol ishtiroy etgan professor-o’qituvchilar sertifikatga ega bo’ladilar.

Videokonferentsiyada ishtiroy etish uchun ro’yxatdan o’tishning oxirgi muddati – 2020 yil 16 may.